НОВАЯ ЭРА НАУКИ И ЗНАНИЙ
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНЫЙ ЖУРНАЛ
global-science-review.com
editor@global-science-review.com

ALOHIDA YORDAMGA MUXTOJ BOLALARNI INKLYUZIV TA'LIMGA JALB ETISH

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Maxsus pedagogika yo'nalishi 4-bosqich talabasi
To'xtaboyeva Inobat Norsoat qizi

Hozirgi kunda ko'pchilik tomonidan eng bahsli deb tan olingan masala alohida yordamga muhtoj va imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv ta'limni joriy etish masalasidir. Inklyuziv ta'limni joriy etish deganda, imkoniyati cheklangan bolalar uchun xalqaro darajadagi ta'lim sohasining siyosati va tajribasida muhim oqibatlarni nazarda tutiladi.

Hamma bolalarning ehtiyojlarini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan, ijtimoiy adolat hamda tenglikka erishishni maqsad qilib olgan ta'lim tizimi inklyuziv ta'lim deyiladi. Inklyuziv ta'lim nogiron bolalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish hamda umumta'lim maktablarini nogiron bolalarga moslashtirishni ko'zda tutadigan, ijtimoiy adolat va tenglikni bosh maqsad qilib olgan jarayondir.

Inklyuziv ta'lim, inson huquqlarini farqlari va turlarini namoyon qilish, baholash va hisobga olishni, ijtimoiy adolat va adolatlilik masalalarini, shuningdek nogironlikning ijtimoiy modeli va ta'limning ijtimoiy-siyosiy modelini o'z ichiga olgan ko'p tomonlama konsepsiyadan iborat. Shuningdek, maktabni transformatsiya qilish jarayoni va bolalar diqqatini ta'lim olish huquqi va ta'lim olish imkoniyatiga jalb etishni o'z ichiga oladi. Inklyuziv ta'limning umumiy maqsadi sifatida inklyuziv ta'limni talabalarga jamiyat hayotida ishtirok etish imkoniyatini berish vositasi sifatida deb ta'kidlanadi[1].

1Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежомДиссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

Alohida yordamga muhtoj va imkoniyati cheklangan bolalar uchun inklyuziv inklyuziv ta'limi 4 asosiy tamoyilga tayanadi. Bu:

- birinchidan, ko'plab o'quvchilarni umumiy ta'limning ko'plab va'dalar beruvchi, qiziqarli va egiluvchan o'quv dasturlari bilan ta'minlash;

- ikkinchidan, o'ziga jalb etuvchi turfa xillik, kuchli tomonlari va chaqiriqlarga e'tibor berilishi;

- uchinchidan, differensial ta'lim va amaliyotni o'zida aks ettirish yordamida;

- to'rtinchidan, talabalar, o'qituvchilar, oilalar, boshqa mutaxassis va jamoat muassasalari bilan birgalikdagi hamkorlik asosidagi hamjamiyatni tashkil etish.

Yuqorida bayon etilganlardan shu narsa ayon bo'ladiki, inklyuziv ta'lim konstruktiv yo'naltirilgan holda imkoniyati cheklangan bolalar (SEND)ga ta'lim berishni yaxshilashni ta'minlashga harakat qilmoqda. Shunga qaramasdan, yuqoridagi qarashlarga qarama qarshi holda, ayrim mualliflar ta'limning inklyuziv natijalari aqlga zid mafkuraning bolalar uchun qurbonligi, deb ta'kidlaydilar (Kauffman va Xallaxan 2005).

Inklyuziv ta'limning muxim muammolaridan biri vositalarning maqsad sari yo'naltirilganligida. To'liq jalb etish tarafdorlari ta'kidlaydilarki, imkoniyati cheklangan bolalarni aloxida joylashtirish noto'g'ri, chunki ta'limning asosiy maqsadi bolalarni o'zlari yashayotgan jamiyatga to'liq jalb etishdan iborat.

Maxsus ta'lim o'z ichiga xulq-atvor, emotsional, jismoniy, salomatligida yoki sensor rivojlanishida buzilishlari bo'lgan talabalar uchun ularni baholash tajribasi va xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan maxsus ishlab chiqilgan va koordinatsiyalashtirilgan ilmiy asoslangan uslubiy majmuaviy to'plamini yetkazib berish va monitoring qilishni o'z ichiga oladi. Bu ta'limiy tajribalar va xizmatlar talabalarning alohida kuchli jihatlari va muammoli tomonlarini hisobga olgan holda aniqlanadi va bartaraf etiladi; ularning ta'limiy, ijtimoiy, xatti-harakat (xulq-atvor) va jismoniy rivojlanishlarini oshirish maqsadida; maktab ta'limining, jamoalar va jamiyatning barcha jabhalariga kirish va haqqoniylikni ta'minlash.

Bu shundan darak beradiki, maxsus ta’lim quyidagicha ta’riflanadi[2]:

Individual baholash va rejalashtirish.

Ixtisoslashtirilgan ta’lim.

Intensiv (tezkor) ta’lim.

Maqsadga yo’naltirilgan ko’rsatma.

Ta’lim tajribasi asosidagi tadqiqot.

Hamkorlikdagi sheriklik.

O’quvchining samaradorlik bahosi.

Inklyuzivlashtirilgan maktablarda o’quvchilarning barcha fazilatlarini olqishlash, e’tirof etish, tasdiqlash va namoyish qilish orqali ularni hududlaridagi umumta’lim maktablari sinflari davriga mos keluvchi, yuqori sifatli o’quvchilarni tarbiyalash. Bu shundan dalolat beradiki, inklyuziv ta’lim quyidagicha xarakterlanadi:

Hamjamiyat doirasidagi qabul qilish va tegishlilik falsafasi;

Talaba, oila, pedagog va hamjamiyatning hamkorlik falsafasi;

Barcha o’quvchilarning turli tumanligi va qadrliligi belgilanadi;

Yuqori sifatli maktablardagi o’quvchilarning ma’rifatliligini qadrlash;

O’z tengqurlari bilan birga o’quvchilarning ma’rifatliligini qadrlash;

Oddiy sinflarda o’qiydigan o’quvchilarning ma’rifatliligini qadrlash;

Maktablar va mahalliy hamjamiyatdagi o’quvchilarning tarbiyalanishini qadrlash.

Ayon bo’ladiki, inklyuziv ta’lim va maxsus ta’lim turli falsafalarga asoslangan, imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda turli alternativ yondashuvlarni turli sabablar bilan ishlab chiqgan. Aslini olganda esa, har ikkisi ham imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berishda o’z yondashuvlari bilan qarama

2Сигал Наталья ГермановнаСовременное состояние и тенденции развития инклюзивного образования за рубежом Диссертация ... д-ра пед. наук. — Санкт-Петербург,2016.

qarshi hisoblanadi. Bu hodisa ta’lim sohasining professilonal mutaxassislari uchunham imkoniyati cheklangan bolalar ota-onalari uchun ham chigal masala hisoblanadi. SHuning uchun imkoniyati cheklangan barcha bolalarga samarali ta’lim berish uchun har ikkala tarafning ham nazariyalari, ilmiy tadqiqotlari va amaliy tavsiyalarini integratsiya qiluvchi yangi nazariya talab etiladi. Bu kitob Maxsus inklyuziv ta’lim nazariyasini ishlab chiqish yo’li bilan bu masalani hal etishni taklif qiladi. U o’z tarkibiga falsafani va maxsus ta’lim qadriyatlarini amaliyot bilan va maxsus ta’lim usullari bilan ishlab chiqishni kiritadi. SHu tarzda barcha imkoniyati cheklangan bolalarga ta’lim berish samarasini oshirish uchun maxsus ta’limni kiritgan holda falsafa va siyosatning boshqaruv tamoyillarini, o’qitish usul va uslublari (strategiya) ni ta’minlab beradi. Inlyuziv maxsus ta’limga bunday yangi yondashuvni ishlab chiqish zarurati Yangi Zelandiyadagi imkoniyati cheklangan bolalar bilan o’tkazilgan ijtimoiy tadqiqotlar natijalariga asoslanadi. Quyida keltiriladi. PISA tadqiqotlari boshidanoqYangi Zelandiya Finlyandiya kabi matematika, o’qish va fanlarni egallashda yetakchi davlatlar qatoriga kirganligi sababli tanlab olingan. SHunga qaramasdan, Finlyandiyadan farqli ravishda PISAning har bir tadqiqotida Yangi Zelandiya barcha mamlkatlar ichida talabalarining eng yuqori va eng past natijalari oralig’i katta bo’lgan mamlkat ekanligi aniqlandi. Finlyandiyadagi talabaning eng yuqori reytingi shu davlatdagi ta’lim tizimiga bog’liq holda Yangi Zelandiyadagi yutuqlari oralig’i imkoniyati cheklangan bolalarning maktab haqidagi tasavvurlarining yetarli emasligi masalasini ko’rib chiqish qiziqish uyg’otadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning **PQ-4860 son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”**[3]**gi qarorida:** 2020 —

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning PQ-4860 son “Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tizimini yanada

2025-yillarda xalq ta’limi tizimida inklyuziv ta’limni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va unga muvofiq:

Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar ta’limini 2025-yilgacha rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari (indikatorlari)ni aniqlash

inklyuziv ta’lim tizimi sohasidagi normativ baza takomillashtiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi uchun malakali pedagog kadrlar tayyorlanadi, qayta tayyorlanadi va malakasi oshiriladi;

inklyuziv ta’lim joriy etilgan muassasalarning moddiy-texnika bazasi mustahkamlanadi, ular maxsus moslamalar (ko‘tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), zarur adabiyotlar, metodik qo‘llanmalar, turli kasblarga o‘qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta’minlanadi;

inklyuziv ta’lim sohasiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va innovatsion loyihalar joriy etiladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarning bilim olish huquqi, inklyuziv o‘qitishning mazmun-mohiyatini tushuntirish orqali aholi o‘rtasida ijobiy ijtimoiy muhit shakllantiriladi;

alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni kamsitish, ularga salbiy muomalada bo‘lishning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshiriladi;

inklyuziv ta’lim tizimi tajriba-sinov tariqasida alohida ta’lim muassasalarining faoliyatiga joriy qilinishi bu sohada ro’y berayotgan katta o’zgaarsihlardan ayrimlari sanaladi.

Respublikamizda 3-dekabr “Xalqaro nogironlar kuni” sifatida e’lon qilinishi hamda keng miqyosda nishonlanishi hukumatimiz tomonidan olib borilayotgan kuchli va manzilli ijtimoiy himoya siyosatining isbotidir. Oliy o’quv yurtlarida tahsil olayotgan nogironligi bo’lgan shaxslarning shartnoma to’lovlarini to’lab berilishi,

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarori (Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 14.10.2020-y., 07/20/4860/1383-son)

o’tgan o’quv yilidan boshlab qonunda belgilangan tartibda ularni oliy o’quv yurtlariga grant asosida qabul qilinishi sohada amalga oshirilayotgan ishlarning bir qismigina xolos.

Ko’plab davlatlarda bo’lgani kabi O’zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalar uchun maxsus tashkillangan maktablar bor. Ularning vazifasi bolalarni maxsus o’quv yurtlariga tayyorlashdir. Bolalarni himoya qilish xalqaro tashkiloti Konvensiya tizimiga o’zining asosiy maqsadi etib bola huquqlarini asos etib oladi. Bola huquqlari xalqaro Konvensiya hamma bolalarning ehtiyojini hisobga olgan, huquq va qobiliyatlarini hurmat qiladigan ta’lim tizimini yaratish g’oyasini ilgari surdi. Chunki har bir bolada – u sog’lommi yoki nogironmi – takrorlanmaydigan xarakter, qiziqish, imkoniyat va bilimga ehtiyoj bor.

Inklyuziv ta’lim ijtimoiy modelga asoslanadi va u muammoni bolada emas, balki dastur va metodologiyada deb hisoblaydi. Bunday ta’lim tizimiga ba’zi bir o’zgartirishlar kiritishni taqazo etadi. Bunda har bir bolaning ehtiyojini hisobga olgan holda o’quv rejalari tayyorlanadi, uslubiyotning psixologik muammolari bilan bog’liq tomonlari to’g’ri yo’lga qo’yiladi. Inklyuziv ta’lim hamma bolalarni, shu jumladan, nogiron bolalarni ham o’zlari xohlagan maktabda o’qishi mumkin, deb xulosa chiqaradi. Bolaning nogiron bo’lib qolishiga jamiyat, undagi muhit, tushunmovchiliklar, yo’l qo’yilgan xatolar sababchi bo’lgan. Demak, uning o’qishi uchun ham shu jamiyatning o’zi jon kuydirishi shart. Bola huquqlari xalqaro Konvensiyadan kelib chiqib, yaxshi maktab ta’limini uch xil ibora bilan ta’riflash mumkin, ya’ni:

- **mos keluvchi;**
- **rivojlantiruvchi;**
- **inklyuziv;**

Konvensiyaning 6-moddasida shunday satrlar bor: “Tirik qolish va rivojlanish”. Bu modda mos keluvchi ta’limga taalluqli. Rivojlantiruvchi ta’lim 29-moddada ko’rsatilgan: “Ta’lim shaxsning yuqori darajada rivojlanishiga, iqtidorli,

aqliy va jismoniy qobiliyatlarini o'stirishga yo'naltirlgan bo'lishi, bolani erkin jamiyatda faol yashashga tayyorlash kerak". 2-va 28-moddalar inklyuziv ta'limga tegishli bo'lib, ularda kamsitishning olsini olish, ta'lim hamma uchun qobiliyatiga yarasha ekanligi belgilab qo'yilgan. Maxsus ehtiyojli bolalar, boshqa bolalar, o'qituvchi va tarbiyachilar faoliyati inklyuziv ta'limda o'ziga xos o'rin tutadi. Bunday ta'lim tufayli maxsus ehtiyojli bolalar:

- jismoniy va ruhiy ehtiyojlarini qondiradilar;
- ijtimoiy xulq va o'ziga-o'zi xizmat ko'rsatish malakalarini yaratadilar;
- ularning imkoniyatlarini hisobga olgan o'quv materiallarini o'zlashtiradilar;
- tengqurlari bilan turli o'yinlarda ishtirok etib rivojlanadilar;
- jismoniy tarbiya darslarida shaxmat-shashka o'yinlari, turli sport musobaqalarida vaqtni kuzatuvchi hakam yoki darvozabon bo'lishlari mumkin;
- do'stona muhitda do'st orttiradilar;
- turli ko'ngilochar va bayramona dasturlarda ishtirok etadilar. Boshqa bolalar esa;
- do'stona muhitni yaratadilar;
- maxsus ehtiyojli bolalarga g'amho'rlik qiladilar,ularni turli o'yinlarga jalb qiladilar;
- sinf tadbirlarida ishtirok etadilar;
- tozalik va ozodalikni ta'minlaydilar;
- jamoa oldida ma'suliyat hissini rivojlantiradilar;
- didaktik va o'yin vositalarini tayyorlashda birgalikda ishtirok etadilar;
- o'qituvchi va tarbiyachilar bolalarni bir-birlarining ichki dunyolarini tushunishga o'rgatadilar;
- har bir bolaning qobiliyati va imkoniyatini hisobga oladilar;
- har bir bolada hayotiy malaka va mustaqillikni shakllantiradilar;
- ishlarni tahlil qiladilar va baholaydilar;
- ota-onalarga amaliy yordam ko'rsatadilar;

- barcha bolalarga birdek bilim berib, tarbiyalaydilar;

Demak; inklyuziv ta'lim maxsus ehtiyojli, nogiron bolalar ham faqat maxsus maktablarda emas, balki sog'lom bolalar o'qiydigan umumta'lim maktablarida ham ta'lim-tarbiya olishlari mumkin ekanligini e'tirof etadi. Buning uchun esa maktab ham, o'qituvchi-tarbiyachilar ham inklyuziv ta'lim tizimiga tayyor bo'lishi, maktab darajasi, jismoniy sharoit va o'qishga imkon omillari shu ta'lim talablariga to'la javob berishi kerak. Maktab darajasida integratsiyani muvaffaqiyatli kiritishga bir necha o'zaro bog'liq omillar ta'sir ko'rsatadi. Markaziy omil o'quv dasturiga kiritish imkoniyatidir. Shuningdek, binolarning jismoniy joylashuvi, o'qish uchun imkoniyat va moliyalashgan imkon ham asosiy omilllardandir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. SH.Mirziyoyevning "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi" 2017-yil 7-fevraldagi **PF-4947**-son Farmoni
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning **PQ-4860** son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori
3. "Maktablarin olqishlab-inklyuziv maktablardagi nogiron o'quvchilar"- YuNESKO - 1999 yil.
4. Вакорина Людмила Юрьевна Инклюзивное образование в россии: механизмы управления и повышения эффективности Диссертация ... кан. пед. наук. — Москва,2016.
5. Surdopedagogika pod red. NikitinoyM.I. M., Prosvesheniye, 2002